TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNALIYEV IBROXIMJON USMONALI O‘G‘LI

BOSHQARUV HISOBIDA BALANSLASHGAN KO‘RSATKICHLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 657.372.1

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economic sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Tursunaliyev Ibroximjon Usmonali o‘g‘li
Boshqaruv hisobida balanslashgan ko’rsatkichlar tizimini shakllantirishni takomillashtirish…………………………………………………………… 3

Tursunaliev Ibrokhimjon Usmonali ugli
Improving the formation of balanced scorecard system in management accounting……….. 29

Турсуналиев Иброхимжон Усмонали Угли
Совершенствование формирования системы сбалансированных показателей в управленческом учете... 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…………………………………………………………. 61

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNALIYEV IBROXIMJON USMONALI O‘G‘LI

BOSHQARUV HISOBIDA BALANSLASHGAN KO‘RSATKICHLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4182-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdusalomova Nodira Baxodirovna** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedjanov Karimjon Bakidjanovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Xalilov Sherzod Axmatovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" 12 soat 16[00] dagi **majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy,** Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish **mumkin (1846 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy,** Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" 11 **kuni tarqatildi.**

(2025-yil "28" 11 dagi 1/2 **raqamli reyestr bayonnomasi).**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI •

S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining murakkablashib borishi, tashqi iqtisodiy muhitda raqobatning kuchayishi, raqamlash-tirish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda resurslardan foydalanish samaradorligiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi sharoitida boshqaruv hisobining zamonaviy va moslashuvchan usullar asosida tashkil etilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy va nomoliyaviy axborotni integratsiyalash, qaror qabul qilish sifatini yaxshilash zarurati boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, ilg‘or sanoat mamlakatlarida boshqaruv hisobi va balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi o‘zaro uzviy bog‘langan tizim sifatida qaralib, sanoat samaradorligini oshirish, faoliyatni raqamlash-tirish va hisobotlar aniqligini ta’minlashda asosiy axborot manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu holat metallurgiya korxonalarida zamonaviy boshqaruv usullarini shakllantirish, real vaqt rejimidagi tahlilni amalga oshirish hamda xarajatlarni nazorat qilishni tubdan takomillashtirish imkonini beradi.

Jahon miqyosida boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishni takomillashtirish masalalari tadqiqiga yo‘naltirilgan izlanishlar ko‘lami kengayib bormoqda. Qora metallurgiya sanoati korxonalarida metall mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish, xomashyoni qayta ishlash hamda tayyor mahsulot yetishtirishda resurslardan oqilona foydalanishga erishish, ishlab chiqarish jarayoni ko‘p bosqichli va yuqori kapital talab qiluvchi xususiyatga ega bo‘lgan korxonalarda zamonaviy boshqaruv hisobi vositalarini joriy etish, balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish orqali moliyaviy ko‘rsatkichlar, mijozlar bilan munosabatlar, ichki ishlab chiqarish jarayonlari, xodimlar salohiyati, sifat va xarajatlar kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha faoliyatni kompleks baholash, qora metallurgiya sohasida raqobatbardoshlikni ta’minlash, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini boshqaruv hisobida qo‘llash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qora metallurgiya sanoati korxonalari uchun balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining alohida dolzarbligi hozirda mazkur tarmoq korxonalari miqyosida raqamli transformatsiya va xalqaro sifat menejmenti standartlariga (ISO 9001:2015, ISO 50001:2019) muvofiqlik jarayonlarining joriy qilinishi orqali namoyon bo‘lmoqda. Qora metallurgiya sanoati korxonalari respublika iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishining tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu korxonalar respublikaning og‘ir sanoat, mashinasozlik, qurilish materiallari, transport va energetika sohalarini asosiy metall mahsulotlari bilan ta’minlab, ularning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda. Xususan, “O‘zmetkombinat” kabi yirik aksiyadorlik jamiyati po‘lat, cho‘yan, prokat mahsulotlari hamda boshqa yarim tayyor metall buyumlarini ishlab chiqarish orqali mamlakat ichki talabini qondirib qolmay, eksport bozorlarida ham faol ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, qora metallurgiya korxonalarining iqtisodiyotdagi o‘rni ularning ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik standartlarga rioya qilish orqali yanada kuchaymoqda. Bu esa, bir tomondan, mahsulot tannarxining pasayishiga, ikkinchi tomondan esa, xalqaro bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga olib kelmoqda. Mazkur sanoat tarmog‘i yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion infratuzilmani mustahkamlash orqali respublikaning barqaror iqtisodiy o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24 maydagi PF-79-son “Yer qa’ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 24 fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 24 iyundagi PQ-5159-son “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda moliyaviy va boshqaruv hisobi faoliyatiga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boshqaruv hisobi tizimida Faoliyat samaradorligini baholash va xarajatlar hisobi tizimining nazariy, metodologik va amaliy jihatlari iqtisodiyotning turli sohalarida ko‘plab iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Xususan, xarajatlar hisobi, va boshqaruv hisobini o‘rganish va rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar bir qator taniqli xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Ushbu olimlar qatoriga R.S. Kaplan va D.P. Norton, Z. Hoque, D.O. Madsen va T. Stenheim, P.R. Niven, D. Parmenter, J. Abagissa, O. Zizlavsky, H. Norreklit, G. Lawrie va I. Cobbold, A.A. de Waal, Y. Rdiouat, K.E. Garrett, H.-J. Huizenga va boshqa olimlar kiradi[1].

---

[1] Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The balanced scorecard: Translating strategy into action*. Harvard Business School Press. // Hoque, Z. (2014). 20 years of studies on the balanced scorecard: Trends, accomplishments, gaps and opportunities for future research. *The British Accounting Review, 46*(1), 33–59. https://doi.org/10.1016/j.bar.2013.10.003. // Madsen, D. Ø., & Stenheim, T. (2015). The balanced scorecard: A review of five research areas. *American Journal of Management, 15*(2), 24–41. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2612643. // Niven, P. R. (2006). *Balanced scorecard step-by-step: Maximizing performance and maintaining results* (2nd ed.). John Wiley & Sons. https://www.wiley.com/en-us/Balanced+Scorecard+Step+by+Step%3A+Maximizing+Performance+and+Maintaining+Results%2C+2nd+Edition-p-9780471780496. // Parmenter, D. (2015). *Key performance indicators: Developing, implementing, and using*

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha respublikamiz olimlari tomonidan ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, jumladan, N.B.Abdusalomova, A.A.Abdug‘aniyev, B.A.Xasanov, A.A.Karimov, R.D.Dusmuratov, A.A.Xashimov, A.K.Ibragimov, K.B.Urazov, M.Q.Pardayev, S.Qodirxonov, R.O.Xolbekov, A.J.Tuychiyev, X.A.Ortiqov, B.Y.Maqsudov, Sh.A.Pardayeva, O.O.Sobirov, X.A.Saidakbarov, U.Kostayev va boshqalarning ilmiy ishlari alohida e’tiborga loyiqdir[2]. Ularning

---

winning KPIs (3rd ed.). John Wiley & Sons. https://www.wiley.com/en-us/Key+Performance+Indicators%3A+Developing%2C+Implementing%2C+and+Using+Winning+KPIs%2C+3rd+Edition-p-9781119019855. // Abagissa, J. (2019). The assessment of balanced scorecard implementation in the Commercial Bank of Ethiopia: The case of three branches in East Addis Ababa districts (PhD dissertation). International Journal of Financial Management and Economics, 2(1), 16–23. // Zizlavsky, O. (2014). The balanced scorecard: Innovative performance measurement and management control system. *Journal of Innovation and Business Best Practices*, 2014, 1–16. https://www.scielo.cl/scielo.php?script=sci_arttext&pid=S0718-27242014000300016 . // Nørreklit, H. (2000). The balance on the balanced scorecard: A critical analysis of some of its assumptions. *Management Accounting Research*, *11*(1), 65–88. https://doi.org/10.1006/mare.1999.0121. // Lawrie, G., & Cobbold, I. (2004). Third-generation balanced scorecard: Evolution of an effective strategic control tool. *International Journal of Productivity and Performance Management*, *53*(7), 611–623. https://doi.org/10.1108/17410400410561231. // de Waal, A. A. (2003). Behavioral factors important for the successful implementation and use of performance management systems. *Management Decision*, *41*(8), 688–697. https://doi.org/10.1108/00251740310496206. // Rdiouat, Y. (2021). Measuring and improving information systems agility through the balanced scorecard approach (PhD dissertation). University of Hassan II Casablanca. https://arxiv.org/abs/2109.07281. // Garrett, K. E. (2017). An approach to aligning leadership development with organizational strategy management (PhD dissertation). University of Pennsylvania. // Huizenga, H.-J. (2020). Balanced scorecard perspectives on financial sustainability of a small private university in Canada (PhD dissertation). Walden University. https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations/8353/

[2] Abdusalomova, N.B. (2017). Qora metallurgiya sanoat korxonalarida xarajatlarni boshqarish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish. Iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. // Abdug‘aniyev A.A. Dissertatsiya. Ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari, ularning hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlash va tahlili. BMA, 1998. 9–21 betlar. // Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: O‘zRBMA, 2000, 18 b. // Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari. Diss... iqt.fan.d-ri. BMA, T., 2009. // Dustmuratov R.D. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish. Diss... iqt.fan.d-ri. BMA, T., 2008. Pardayev M.Q. Iqtisodiyotning erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. Iqt.fan.d-ri diss... avtoreferat. BMA, T., 2004. // Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. – T.: Yangi nashr, 2011. 311 b. – 24 b. // Ibragimov A.K. Dissertatsiya. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tannarxini aniqlashni takomillashtirish. BMA. – T., 2002. – 62 b. // O‘razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining nazariy va metodologik muammolari. Iqt.fan.d-ri diss... avtoreferat. BMA, T., 2006. – 36 b. // Pardayev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. Iqt.fan.d-ri diss... avtoreferat. BMA, T., 2004. // Qodirxonov S. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. – T.: O‘zbekiston, 1993. – 7 bet. // Xolbekov R.O. “Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti”. Dissertatsiya. – T., 2006. // Tuychiyev A.J. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari. Diss... iqt.fan.d-ri. – T., 2011. // Ortiqov X.A. To‘qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hisobi va uni takomillashtirish yo‘llari. – T.: O‘zR BMA, nomzod diss. avtoreferat, 2000. // Maqsudov B.Y. Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. // Pardayeva Sh.A. Moliyaviy natijalarning strategic boshqaruv hisobi metadologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Pardayev A.X, Pardayeva Z.A., Pardayeva Sh.A. Operativ va strategik boshqaruv hisobi /Darslik.- T.: OOO “DIADEMA NUR SERVIS”, 2023. // Sobirov O.O. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda boshqaruv xisobini takomillashtirish yo‘nalishlari. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. // Saidakbarov X.A. Boshqaruv hisobi tizimida biznes jarayonlari va ularning hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. // Kostayev U. Strategik boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.

tadqiqotlari, asosan, xarajatlar hisobi prinsiplari, ishlab chiqarish hisobini tashkil etish va turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xarajatlar hisobi va boshqaruv hisobining umumiy nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, boshqaruv hisobi doirasida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari, ayniqsa, respublikamizdagi sanoat korxonalari misolida yetarlicha chuqur tadqiq qilinmaganligi kuzatiladi.

Korxonalarda integratsiyalashgan faoliyat samaradorligini baholash vositalarini joriy etishdagi amaliy muammolar, strategik rejalashtirishning ortib borayotgan roli hamda ishlab chiqarish jarayonlarini milliy darajadagi taraqqiyot strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish zarurati boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini oshirmoqda. Ushbu dissertatsiya mazkur ilmiy bo‘shliqni bartaraf etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, sanoat tarmog‘i sharoitlariga moslashtirilgan, empirik asoslangan va takomillashtirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek, uni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha innovatsion yondashuvni ilgari suradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-sonli “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo‘nalishi” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qora metallurgiya sanoati korxonalari boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshqaruv hisobida Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining (BSC) nazariy va metodologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslab berish;

qora metallurgiya sanoati korxonalarida faoliyat samaradorligini baholash tizimlariga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;

qora metallurgiya sanoati korxonalarida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llanilishi holatini o‘rganish va takomillashtirishga muhtoj asosiy yo‘nalishlarni aniqlash;

boshqaruv hisobining balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi doirasida faoliyat ko‘rsatkichlarini tahliliy va strategik jihatdan tuzish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

boshqaruv hisobi sohasidagi xalqaro ilg‘or tajribalar, jumladan Faoliyatga asoslangan xarajatlar tizimi (ABC) bilan integratsiyalangan holda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish uchun metodik yondashuvlarni taklif etish;

strategik rejalashtirish va samaradorlikni baholash jarayonlariga balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi ko‘rsatkichlarini kiritgan holda boshqaruv hisobotlarining tarkibi va tuzilmasini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ma’lumotlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv hisobi amaliyotida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish va qo‘llab-quvvatlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida taqqoslash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o‘rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy matematik tahlil, buxgalteriya hisobi usullari va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimida sifat va amalga oshirish ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda xarajatlarni boshqarish ko‘rsatkichlarini integratsiya qilish orqali tashkilot faoliyati natijalarini strategik va operatsion darajada baholash aniqligini oshirish chegarasi ($15\% \leq BA \leq 20\%$)da xo‘jalik faoliyatining asosiy jihatlarini to‘liq qamrab olish va strategik boshqaruv samaradorligini oshirish asoslangan;

korxonalar faoliyati samaradorligini moliyaviy barqarorlik (qarz yuki koeffitsiyenti, likvidlik indeksi) va operatsion samaradorlik (resurs aylanish tezligi, mahsulot birligiga sarflanadigan vaqt) ko‘rsatkichlarini xodimlar malakasini rivojlantirish va mijozlar ehtiyojini qondirish ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash orqali balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan;

tarmoqda kapital zichligi, xalqaro bozorlar ta’siri va ekologik standartlar inobatga olingan holda balanslashgan ko‘rsatkichlar xaritasini tahlil qilish uslubi ishlab chiqarish texnologiyasi va resurs taqsimotini strategik rejalashtirishda aniqlik darajasini oshirish asosida takomillashtirilgan;

“O‘zmetkombinat” AJ balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini Activity Based Costing (ABC) modeli bilan integratsiya qilish orqali biznes jarayonlar samaradorligini baholash aniqligi darajasini ($0,88 \leq BDS \leq 0,92$) ta’minlash hamda resurslarni qayta taqsimlash orqali umumiy xarajatlarni 10–12% gacha qisqartirish imkonini asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshqaruv qarorlarini asoslashda moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirgan, korxona faoliyatining sifat, amalga oshirish va xarajatlarni boshqarish jihatlarini qamrab olgan kengaytirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan;

faoliyatga asoslangan xarajatlar tizimi (ABC) asosida boshqaruv hisobida xarajatlar manbalarini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va ortiqcha xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari yaratilgan;

korxonada ko‘rsatkichlar xaritasi tuzilib, har bir bo‘lim faoliyati bo‘yicha natijalarni o‘lchash va baholash mezonlarini belgilab olish orqali boshqaruv qarorlarining natijaviyligi oshirilgan;

ishlab chiqilgan model asosida boshqaruv hisobotlari tizimlashtirilib, xarajatlar markazlari kesimida rejalashtirish va tahlil qilish imkoni yaratilib, ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda aniq axborot bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar, rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlar, tadqiqotda “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirishga doir ma’lumotlarning asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar hamda “O‘zmetkombinat” AJ rasmiy ma’lumotlari, shuningdek, taklif va tavsiyalarning aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan boshqaruv hisobini takomillashtirishda foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy asoslangan takliflar va metodik tavsiyalardan boshqaruv hisobi konsepsiyasini yanada rivojlantirish, balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini tarmoqqa moslashtirish, moliyaviy va nomoliyaviy axborotlardan kompleks foydalanish, xarajatlarni faoliyatlar bo‘yicha hisoblash mexanizmlarini boshqaruv hisobiga integratsiya qilish, boshqa tarmoqdagi korxonalarning, jumladan, ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning boshqaruv hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan qora metallurgiya sanoati korxonalarida boshqaruv hisobini takomillashtirish, balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi orqali ichki axborot oqimini yaxshilash, xarajatlarni tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, qaror qabul qilishda axborot ta’minotini mustahkamlash va boshqaruv tizimining funksional imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimida sifat va amalga oshirish ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda xarajatlarni boshqarish ko‘rsatkichlarini integratsiya qilish orqali tashkilot faoliyati natijalarini strategik va operatsion darajada baholash aniqligini oshirish chegarasi ($15\% \leq BA \leq 20\%$)da xo‘jalik faoliyatining asosiy jihatlarini to‘liq qamrab olish va strategik boshqaruv samaradorligini oshirish taklifi “O‘zmetkombinat” AJ amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zmetkombinat” AJning 2025-yil 26 martdagi 01/05-01-01/407-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxona faoliyatini kompleks tahlil qilish, ko‘rsatkichlarni bir butun tizimda baholash va boshqaruv axborotining to‘liqligini ta’minlash imkoni yaratilgan;

korxonalar faoliyati samaradorligini moliyaviy barqarorlik (qarz yuki koeffitsiyenti, likvidlik indeksi) va operatsion samaradorlik (resurs aylanish tezligi, mahsulot birligiga sarflanadigan vaqt) ko‘rsatkichlarini xodimlar malakasini rivojlantirish va mijozlar ehtiyojini qondirish ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash orqali balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish taklifi “O‘zmetkombinat” AJ amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zmetkombinat” AJning 2025-yil 26 martdagi 01/05-01-01/407-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turli manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini muvozanatlash hamda qaror qabul qilishni asoslash imkoni yaratilgan;

tarmoqda kapital zichligi, xalqaro bozorlar ta’siri va ekologik standartlar inobatga olingan holda balanslashgan ko‘rsatkichlar xaritasini tahlil qilish uslubi ishlab chiqarish texnologiyasi va resurs taqsimotini strategik rejalashtirishda aniqlik darajasini oshirish asosida takomillashtirish taklifi “O‘zmetkombinat” AJ amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zmetkombinat” AJning 2025-yil 26 martdagi 01/05-01-01/407-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxona faoliyati doirasida asosiy operatsion, moliyaviy va ekologik ko‘rsatkichlarning monitoringi yo‘lga qo‘yilgan;

“O‘zmetkombinat” AJ balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini Activity Based Costing (ABC) modeli bilan integratsiya qilish orqali biznes jarayonlar samaradorligini baholash aniqligi darajasini ($0,88 \leq BDS \leq 0,92$) ta’minlash hamda resurslarni qayta taqsimlash orqali umumiy xarajatlarni 10–12% gacha qisqartirish taklifi “O‘zmetkombinat” AJ amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zmetkombinat” AJning 2025-yil 26 martdagi 01/05-01-01/407-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xarajat omillari aniqlash, resurslarni taqsimlash samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlar aniqligi va ishonchliligini kuchaytirish, yashirin xarajatlarni aniqlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan hamda ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, mahalliy OAK e’tirof etgan jurnallarda 6 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shuningdek ilmiy-amaliy konferensiyalarda 11 ta ma’ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan. Dissertatsiyaning hajmi 140 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflanib, uning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar ro‘yxati hamda dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining nazariy va tashkiliy asoslari”** deb nomlanib, unda O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda aksiyadorlik jamiyatlarining o‘rni va ularning o‘ziga xos jihatlari, boshqaruv hisobida balanslashgan ko’rsatkichlar tizimining konseptual va nazariy asoslari, balanslashgan ko’rsatkichlar tizimi va xorijiy tajriba batafsil o‘rganilgan, ilmiy-nazariy qarashlar hamda ularning evolyutsiyasi tizimlashtirilgan, uslubiy vositalari tadqiq qilingan va bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Qora metallurgiya O‘zbekiston sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishida muhim rol o‘ynaydi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoati ishlab chiqarish sanoatining 22,7 foizini tashkil etib, umumiy ishlab chiqarish hajmi 171,4 trillion so‘mga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 6,3 foizga o‘sdi. 2025-yil yanvar oyida metallurgiya tarmog‘i ishlab chiqarish sanoatining 32 foizini tashkil etdi. Bu esa ushbu tarmoqning sanoatdagi yetakchi o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qora metallurgiya tarmog‘i nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. 2024-yilning yanvar-noyabr oylari davomida O‘zbekistonning metallurgiya sanoati hajmi 154,5 trillion so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yillarga nisbatan katta o‘sishni namoyon qilmoqda. Shuningdek, qora metallurgiya tarmog‘ining rivojlanishi boshqa sanoat tarmoqlari, xususan, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va transport sohalarining o‘sishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu tarmoqning rivojlanishi mamlakatning sanoat infratuzilmasini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Qora metallurgiya sanoatida yetakchi o‘rin egallab kelayotgan yirik korxonalardan biri “O‘zmetkombinat” AJ bo‘lib, u O‘zbekistonda metallurgiya sanoatini shakllantirgan birinchi yirik korxonalardan sanaladi. Kombinat o‘z faoliyatini 1944-yil 5-martda boshlagan va bugungi kunda 100 dan ortiq turdagi metall mahsulotlarini ishlab chiqarib, ichki bozordagi ulushi 30 foizdan ortiqni tashkil etadi. Korxona yiliga 1 million tonnadan ortiq mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lib, 9 000 dan ortiq malakali mutaxassislar faoliyat yuritmoqda[3]. “O‘zmetkombinat” AJ faoliyati qora metallurgiya sanoatining eksport imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, ichki bozorni sifatli xomashyo bilan ta’minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Korxona tomonidan amalga oshirilayotgan modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlari orqali xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish texnologiyalari joriy qilinmoqda, bu esa sanoat tarmog‘ining yanada barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Quyidagi 1-jadvalda “O‘zmetkombinat” AJni YIMdagi ulushi keltirilgan:

---

[3] Uzbek Steel. (n.d.). *About the company*. JSC "Uzmetkombinat". Retrieved June 2, 2025, from https://www.uzbeksteel.uz/579/p

1-jadval

“O‘zmetkombinat” AJ daromadlari va ularning O‘zbekiston YIMidagi ulushi (2019–2024-yillar)[4]

Yil	Daromad (mlrd so‘m)	O‘zbekiston YIM (mlrd AQSh dollari)	1 AQSh dollarining o‘rtacha kursi (so‘m)	O‘zbekiston YIM (mlrd so‘m)	“O‘zmetkombinat” AJ YIMdagi ulushi (%)
2019	5269	59.9	9450	566055	0.000930828
2020	5245	60.5	10400	629200	0.000833598
2021	8328	69.2	10700	740440	0.001124737
2022	8768	80.4	11200	900480	0.000973703
2023	8695	95	12000	1140000	0.000762719
2024	7581	114.96	12920	1454574	0.0005210

2019–2024-yillar oralig‘ida “O‘zmetkombinat” AJ daromadlari so‘mda ifodalangan holda umumiy o‘sish tendensiyasini namoyon etdi — 2019-yilda 5,269 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 7,581 trillion so‘mga yetdi. Eng yuqori daromad esa 2022-yilda qayd etilgan bo‘lib, 8,768 trillion so‘mni tashkil etgan.

2019-yilda “O‘zmetkombinat” AJ daromadlarining O‘zbekiston YIMidagi ulushi taxminan 0,093 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilda biroz kamayib, 0,083 foizga tushgan, biroq 2021-yilda 0,112 foizgacha oshib, eng yuqori darajaga yetgan. 2021-yildagi bu o‘sishni, bir tomondan, korxona daromadlarining keskin oshgani (2020-yildagi 5,245 trillion so‘mdan 2021-yilda 8,328 trillion so‘mgacha), ikkinchi tomondan esa YIMning nisbatan sekin o‘sishi bilan izohlash mumkin. Biroq 2022 va 2024-yillarda korxonaning YIMdagi ulushi mos ravishda 0,097% va 0,052% gacha kamaygan.

“O‘zmetkombinat” AJ daromadlari 2019-yildan 2024-yilgacha 5269 mlrd so‘mdan 7581 mlrd so‘mga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar korxonada moliyaviy resurslardan foydalanish darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi. Moliyaviy yo‘nalishdagi bunday ijobiy o‘zgarishlar boshqaruv hisobida foyda, rentabellik, pul oqimlari va kapitallilikni tahlil qilishda asosiy rol o‘ynaydi. “O‘zmetkombinat” AJ faoliyati 2019–2023-yillar davomida boshqaruv hisobining asosiy yo‘nalishlariga asoslangan holda tahlil qilinar ekan, balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi (BSC) orqali korxona samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha shakllangan ko‘rsatkichlar, hisob va tahlil orqali boshqaruv qarorlarini asoslash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi bu xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy va nomoliyaviy jihatlarini o‘zaro uzviy bog‘liqlikda aks ettiruvchi, ko‘rsatkichlar majmuasiga asoslangan holda axborot oqimini tizimlashtirishga xizmat qiluvchi, boshqaruv qarorlarini asoslash, ularni monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi kompleks

[4] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

analitik platformadir. Mazkur tizim korxona ichki muhitidagi operatsion, resurs va samaradorlik bilan bog‘liq omillarni hamda tashqi muhitdagi o‘zgaruvchan iqtisodiy va bozor sharoitlarini hisobga olgan holda, boshqaruv hisobining zamonaviy yondashuvlariga asoslangan ko‘p qatlamli boshqaruv modelini shakllantiradi. Mazkur tizim doirasida biz tomonimizdan berilgan taklif asosida quyidagi olti ko‘rsatkich yo‘nalishi asosiy baholash mezonlari sifatida integratsiya qilinadi:

1. Moliya (moliyaviy holat va operatsiyalarning moliyaviy natijalari). Tashkilotning moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bo‘lib, daromad, foyda, aktivlar rentabelligi, likvidlik va kapital tuzilmasi bilan bog‘liq mezonlarni qamrab oladi. Ular korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligini, investitsion jozibadorligini va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini baholashda asosiy vosita hisoblanadi.
2. Mijozlar (mijozlar nuqtai nazaridan kompaniyaning imiji). Mijozlar ehtiyojlari va ular bilan bog‘liq qoniqish darajasi, sodiqlik, takroriy xaridlar koeffitsiyenti, yangi mijozlarni jalb qilish salohiyati kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Bu yo‘nalish orqali tashkilotning bozor segmentlari bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi va xaridorga yo‘naltirilgan strategiyalar ishlab chiqiladi.
3. Ichki biznes jarayonlari (ko‘p jihatdan kompaniya samaradorligini belgilaydigan asosiy jarayonlar). Korxona ichida mavjud asosiy ishlab chiqarish, ta’minot, xizmat ko‘rsatish va nazorat jarayonlarining samaradorlik darajasini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimidir. Bu yo‘nalish orqali mahsulot sifati, ishlab chiqarish sikli, muammolarni hal qilish tezligi va jarayonlarning xarajat samaradorligi o‘lchanadi.
4. O‘qitish va o‘sish (korxona xodimlarining madaniyati, texnologiyasi va malakasining eng muhim elementlari). Xodimlar salohiyati, ularning malaka darajasi, innovatsion faoliyatga tayyorligi, tashkiliy o‘zgarishlarga moslashuvchanlik va axborot texnologiyalaridan foydalanish salohiyatini baholaydi. Bu yo‘nalish korxonaning doimiy o‘sish va rivojlanishga tayyorlik darajasini aks ettiradi.
5. Sifat va amalga oshirish (sifat talablariga rioya qilish va ularni nazorat qilish). Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida xalqaro sifat standartlariga muvofiqlik, texnologik intizomga rioya qilish, audit va nazorat mexanizmlarining samaradorligi kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalish mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.
6. Xarajatlarni boshqarish (xarajatlarni nazorat qilish va kamaytirish).Xarajatlar tarkibi, ularga ta’sir etuvchi omillar va ularning resurslar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Bu yo‘nalish orqali boshqaruv hisobi xarajatlarni optimallashtirish, samarasiz sarflarni aniqlash va korxona moliyaviy natijalarini barqarorlashtirishga yo‘naltirilgan boshqaruv vositalarini ishlab chiqishga asos yaratadi.

Ushbu ko‘rsatkich yo‘nalishlari boshqaruv hisobining axborot ta’minotini takomillashtirish, tahliliy salohiyatini kengaytirish hamda boshqaruv qarorlarini asoslash jarayonini tizimlashtirishga xizmat qiladi. Har bir yo‘nalish orqali tashkilot faoliyatining muhim jihatlari alohida tahlil qilinadi va ular o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik aniqlanadi. Bu esa qaror qabul qilishni tezlashtirish va aniq maqsadga yo‘naltirish imkonini beradi.

1-rasm. Qora-metallurgiya sanoatida boshqaruv hisobi uchun kengaytirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi[5]

Metallurgiya sanoati korxonalarida boshqaruv hisobini takomillashtirish jarayonida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining kengaytirilgan shakli samarali tahliliy yondashuv sifatida qo‘llanilishi mumkin. 1-rasmda ifodalangan bu yondashuv asosida korxona faoliyati har tomonlama baholanadi. An’anaviy to‘rtta yo‘nalishdan tashqari, ikki muhim yo‘nalish – sifat va amalga oshirish hamda xarajatlarni boshqarish yo‘nalishlari qo‘shilib, tizimning amaliy qo‘llanilish doirasi kengaytirilgan.

Moliyaviy yo‘nalish doirasida korxonaning daromadi, sof foydasi, aktivlar rentabelligi kabi ko‘rsatkichlar asosida moliyaviy barqarorlik darajasi tahlil qilinadi. Mijozlar bilan ishlash yo‘nalishida esa xaridorlarning ehtiyojlarini qondirish darajasi, mahsulot sifati bo‘yicha qoniqish holati, ularning sodiqligi va xarid jarayonidagi vaqt va xarajatlar ko‘zdan kechiriladi.

[5] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

Ichki biznes jarayonlarida ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik jarayonlar sifati va resurslardan foydalanish samaradorligi baholanadi. O‘rganish va rivojlanish yo‘nalishida xodimlarning malakasi, bilim va tajriba almashinuvi hamda innovatsion g‘oyalarni joriy etish imkoniyatlari aniqlanadi.

Shuningdek, sifat va amalga oshirish yo‘nalishida xalqaro standartlarga muvofiq texnologiyalarning joriy etilishi, mahsulot sifatining oshirilishi hamda ishlab chiqarish tartib-intizomining saqlanishi tahlil qilinadi. Xarajatlarni boshqarish yo‘nalishida esa ishlab chiqarish xarajatlari va resurslar tejamkorligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar asosida samaradorlik baholanadi.

Mazkur yondashuv orqali korxona faoliyatining moliyaviy va nomoliyaviy jihatlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinib, boshqaruv hisobida yanada chuqur va tizimli qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa uzoq muddatli samaradorlikni ta’minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv metallurgiya sanoati sharoitida boshqaruv hisobining amaliy ahamiyatini oshirib, yangicha ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqaruv hisobi doirasida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi moliyaviy va operatsion axborotlar o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlaydi. Ushbu tizim yordamida moliyaviy natijalar, mijozlar ehtiyojlari, ichki jarayonlar samaradorligi, xodimlar malakasi, xizmat sifati va xarajatlar holati bir butun ko‘rinishda baholanadi. Bu esa turli bo‘limlar faoliyatini muvofiqlashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan, ushbu yondashuv ishlab chiqarish tarmoqlari uchun, ayniqsa yuqori kapital sig‘imi va ko‘p bosqichli texnologik jarayonlarga ega korxonalar uchun, boshqaruv hisobini manzilli, tizimli va baholovchan shaklda yuritishga asos yaratadi. Boshqaruv funksiyalarining real vaqt rejimida axborot bilan ta’minlanishi orqali faoliyatni uzluksiz monitoring qilish va zaruriy chora-tadbirlarni tezkor qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Bizning fikrimizcha, korxonada mavjud boshqaruv hisobi tizimiga balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini (BSC) joriy etish tashkilotning umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu konsepsiyani amaliyotga tatbiq qilgan korxonalar qaror qabul qilish jarayonining yaxshilanishi, operatsion faoliyatning aniqroq tashkil etilishi orqali mahsulot tannarxini kamaytirishga erishadilar. Shuningdek, balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi asosidagi boshqaruv yondashuvi axborotning aniqligi, o‘z vaqtida taqdim etilishi va ko‘p yo‘nalishli baholashga asoslanganligi sababli, resurslar taqsimotining maqsadga muvofiqligini ta’minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Bu tizim orqali nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki nomoliyaviy jihatlar – mijozlar bilan munosabatlar, ichki jarayonlarning samaradorligi, inson kapitali salohiyati va sifat standartlariga muvofiqlik darajasi kabi mezonlar ham kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Natijada, boshqaruv hisobi an’anaviy hisob-funksiyalardan chiqib, tashkilot faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, baholovchan va barqaror qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi axborot tizimiga aylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror rivojlanish zaminini yaratish va boshqaruv madaniyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini metodologik asoslari va amaliyotini tashkil etish”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv hisobida balanslashgan ko'rsatkichlar tizimini tashkil etish, “O‘zmetkombinat” AJda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini tashkil etishning amaliyoti va “O‘zmetkombinat” AJda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini joriy etilishi natijalari tahlil qilingan hamda uni takomillashtirish borasidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida boshqaruv hisobi doirasida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining strategik qamrovini kuchaytirish maqsadida ushbu tadqiqot ikki qo‘shimcha ko‘rsatkichni — “Sifat va amalga oshirish” hamda “Xarajatlarni boshqarish” ko’rsatkichlari kiritishni taklif etdik. “Sifat va amalga oshirish” ko‘rsatkichi me’yoriy hujjatlarga rioya qilish, xavflarni boshqarish hamda mahsulot va xizmatlar sifati kafolatini ta’minlash kabi omillarning ortib borayotgan ahamiyatini inobatga oladi. “Xarajatlarni boshqarish” ko‘rsatkichi esa strategik xarajat nazorati, jarayonlar samaradorligi va resurslardan optimal foydalanishga urg‘u beradi. Bizning fikrimizcha, ushbu qo‘shimchalar balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi konsepsiyasini zamonaviy tashkilotlar ehtiyojlariga yanada moslashtiradi va uni tez o‘zgaruvchan hamda qat’iy tartibga solinadigan sanoat muhitida dolzarb va amaliy jihatdan samarali boshqaruv vositasiga aylantiradi.

Kaplan va Anderson[6] 2022-yilgi tadqiqotida xarajatlarni boshqarish (Strategic Cost Management – SCM)ni balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi bilan integratsiyalash masalasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda korxonalar balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimidan strategik xarajatlarni boshqarish vositasi sifatida foydalanishlari mumkinligi ta’kidlanadi. Bu esa xarajatlar nazoratini uzoq muddatli biznes maqsadlari va moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Metall ishlab chiqaruvchilar xarajatlarni boshqarish yondashuvlarini balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi bilan birgalikda qo‘llagan holda xarajatlarni strategik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish, ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirish va umumiy moliyaviy samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Turli sohalarda, jumladan, metallurgiya sanoatida ham xarajatlarni boshqarish va balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi integratsiyasi asosida amalga oshirilgan amaliy tadqiqotlar xarajatlarni boshqarish va moliyaviy natijalarning sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatmoqda.

“O‘zmetkombinat” AJda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish kompaniya strategik maqsadlarini oltita asosiy yo‘nalish bo‘yicha o‘lchanadigan samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi: Moliyaviy, Mijozlar, Ichki biznes jarayonlari, O‘rganish va rivojlanish, Sifat va amalga oshirish, hamda Xarajatlarni boshqarish. Ushbu kompleks yondashuv kompaniya

[6] Kaplan, R. S., & Anderson, S. R. (2022). Time-Driven Activity-Based Costing: A Strategic Cost Management Tool for the Digital Age. Journal of Management Accounting Research, 34(1), 1–20. https://doi.org/10.2308/JMAR-2021-0123

faoliyatini an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlardan tashqarida ham har tomonlama baholash imkonini yaratadi.

Biz tomonimizdan berilgan taklif asosida quyidagi 2-jadvalda “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruv hisobida moliyaviy, mijozlar, ichki biznes jarayonlari, o‘rganish va rivojlanish, sifat va amalga oshirish hamda xarajatlarni boshqarish yo‘nalishlarining qo‘llanilishi keltirilgan:

2-jadval

“O‘zmetkombinat” AJ boshqaruv hisobida moliyaviy, mijozlar, ichki biznes jarayonlari, o‘rganish va rivojlanish, sifat va muvofiqlik hamda xarajatlarni boshqarish yo‘nalishlarining qo‘llanilishi[7]

Ko‘rsatkichlar	Strategik maqsadlar	Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)	Loyihalar/ tashabbuslar
Moliyaviy	-Rentabellikni maksimal darajada oshirish -Aktivlardan foydalanishni optimallashtirish	- Daromad o‘sish sur’ati - Sarmoyaning rentabelligi (ROI) -Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi	-2021–2025-yillarda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish dasturi -Xarajatlarni nazorat qilish choralari
Mijozlar	-Mijozlar qoniqishini oshirish -Bozor ulushini kengaytirish	- Mijozlar qoniqish indeksi - Bozor ulushi - Mijozlarni saqlab qolish ko‘rsatkichi	-Eksport bozorlarini kengaytirish -Mijozlar fikrini yig‘ish va tahlil qilish
Ichki biznes jarayonlari	-Operatsion samaradorlikni oshirish - Mahsulot sifatini yaxshilash	-Ishlab chiqarish samaradorligi - Yetkazib berish muddati - Yaroqsiz mahsulot koeffitsiyenti	-Quyish va prokat sexi qurilishi -Jarayonlarni avtomatlashtirish
O‘rganish va rivojlanish	-Xodimlar salohiyatini mustahkamlash -Innovatsiyalarni rivojlantirish	-Xodimlarning o‘quv dasturlarida ishtiroki - Innovatsiyalarni joriy etish darajasi -Xodimlarning ishtirok darajasi	-O‘quv dasturlarini amalga oshirish -Yangi texnologiyalarni joriy etish
Sifat va amalga oshirish	-Mahsulot sifatini barqaror saqlash -Me’yoriy hujjatlarga rioya qilish	-Standart talablariga javob beruvchi mahsulotlar ulushi -Muvofiqlikdan chetlanish holatlari soni	-Mahsulotlarni sertifikatlash -Auditlar va sifatni yaxshilash tashabbuslari
Xarajatlarni boshqarish	-Ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish -Xarajatlar shaffofligini oshirish	-Har bir tonna ishlab chiqarish tannarxi -Xarajatlar farqi (cost variance) -Byudjetga rioya qilish darajasi	-Strategik xarajatlarni boshqarish -Funksional xarajat tahlili

2019–2024-yillar davomida “O‘zmetkombinat” AJ moliyaviy ko‘rsatkichlari dastlabki o‘sish davri va keyingi qiyinchiliklarni ifodalaydi. Likvidlilik ko‘rsatkichlari davr mobaynida barqaror bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, 2024-yilda pasayib, qisqa muddatli to‘lov qobiliyatining susayganini bildiradi. Moliyaviy tayanch 2023-yilgacha ortib borgan, ya’ni qarz mablag‘laridan foydalanish

[7] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

kuchaygan, biroq 2024-yilda keskin kamayishi qarz va oʻz mablagʻi oʻrtasidagi muvozanatning sogʻlomlashganini koʻrsatadi. Rentabellik 2021-yilda eng yuqori darajaga chiqqan: oʻz mablagʻi rentabelligi 45 foiz, aktivlar rentabelligi esa 9,6 foiz boʻlgan. Bu kompaniya mablagʻ va aktivlardan samarali foydalanganini anglatadi. Keyingi yillarda bu koʻrsatkichlarning pasayishi daromadlilikni saqlab qolish, samaradorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash zarurligini koʻrsatmoqda.

Quyidagi 3-jadvalda asosiy moliyaviy koʻrsatkichlar nisbati 2019–2024-yillar uchun keltirilgan:

3-jadval

“Oʻzmetkombinat” AJning asosiy moliyaviy koʻrsatkichlar nisbati (2019–2024)[8]

Koʻrsatkich	Formulasi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Current Ratio)	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	1,883 / 1,491 = 1.20	1,679 / 1,527 = 1.10	2,000 / 1,600 = 1.25	2,200 / 1,870 = 1.18	2,300 / 2,000 = 1.15	3,162 / 2,873 = 1.10
Qarz va kapital nisbati (Debt-to-Equity Ratio)	Umumiy majburiyatlar / Kapital	2,263 / 1,536 = 1.47	2,762 / 1,725 = 1.60	3,100 / 2,040 = 1.52	3,500 / 2,110 = 1.66	3,750 / 2,200 = 1.71	7,442 / 6,943 = 1.07
Xususiy kapital rentabelligi (ROE, %)	Sof foyda / Kapital × 100	366 / 1,536 * 100 = 23.8%	212 / 1,725 * 100 = 12.6%	1,664 / 2,040 * 100 = 45.0%	1,437 / 2,110 * 100 = 34.8%	843 / 2,200 * 100 = 18.0%	904 / 6,943 ×100 = 13.0%
Aktivlar rentabelligi (ROA, %)	Sof foyda / Umumiy aktivlar × 100	366 / 3,799 * 100 = 8.5%	212 / 4,334 * 100 = 4.9%	1,664 / 4,800 * 100 = 9.6%	1,437 / 5,200 * 100 = 8.1%	843 / 5,650 * 100 = 5.7%	904 / 14,385 ×100 = 6.3%

Chuqurroq tahlil olib borish maqsadida yana uchta aksiyadorlik jamiyatining asosiy moliyaviy koʻrsatkichlari oʻrganilib, ularning natijalari “Oʻzmetkombinat” AJ bilan qiyoslandi. 4-jadvalda 2020–2024-yillar davomida ushbu uchta aksiyadorlik jamiyatining asosiy moliyaviy koʻrsatkichlari keltirilgan. Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, korxonalar oʻrtasida sezilarli farqlar mavjud. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda joriy likvidlilik koeffitsiyenti asosan 1 atrofida boʻlib, qisqa muddatli barqarorlikni ta’minlagan. Qarz va kapital nisbati 0,5–0,8 oraligʻida shakllanib, moliyaviy barqarorlikning saqlanganidan dalolat beradi. Rentabellik koʻrsatkichlari yuqori boʻlib, xususan, oʻz mablagʻi rentabelligi (ROE) 2020-yildagi 15,5 foizdan 2024-yilda 44,4 foizgacha oshgan, aktivlar rentabelligi (ROA) esa 9,6 foizdan 24,1 foizgacha yetgan. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda dastlabki yillarda likvidlilik koʻrsatkichlari nisbatan barqaror boʻlgan boʻlsa-da, 2023–2024-yillarda keskin pasayib, 1 dan past darajada qayd etilgan. Qarz va kapital nisbati yillardan-yillarga oʻzgarib, 2023-yilda 2,99 gacha koʻtarilgan. Rentabellik koʻrsatkichlari yuqori boʻlib, 2020–2023-yillarda ROE 28,1 foizdan 53,5 foizgacha oʻsgan, biroq 2024-yilda 32,4 foizgacha tushgan. Aktivlar rentabelligi esa 10–17 foiz oraligʻida saqlanib qolgan. “Oʻzikkilamchiranglmetall” AJ esa doimiy ravishda eng past natijalarni qayd

[8] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

etgan. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti 1 atrofida bo‘lsa-da, qarz va kapital nisbati yuqori (1,48–1,65) bo‘lib qolgan. Rentabellik juda past darajada shakllangan: ROE 2,3–6,9 foiz oralig‘ida, ROA esa 1,1–3,1 foiz oralig‘ida bo‘lib, bu korxonaning samaradorligi sust va moliyaviy barqarorligi zaif ekanini ko‘rsatadi.

4-jadval

Uchta aksiyadorlik jamiyatlarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari nisbati[9]

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ						
Ko‘rsatkich	**Formulasi**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Current Ratio)	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	**1.08**	**0.75**	**1.07**	**1.09**	**1.01**
Qarz va kapital nisbati (Debt-to-Equity Ratio)	Umumiy majburiyatlar / Kapital	**0.62**	**0.53**	**0.82**	**0.82**	**0.85**
Xususiy kapital rentabelligi (ROE, %)	Sof foyda / Kapital × 100	**15.5%**	**21.9%**	**20.3%**	**31.3%**	**44.4%**
Aktivlar rentabelligi (ROA, %)	Sof foyda / Umumiy aktivlar × 100	**9.6%**	**14.4%**	**11.1%**	**17.2%**	**24.1%**
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ						
Ko‘rsatkich	**Formulasi**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Current Ratio)	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	1.17	1.15	1.14	0.62	0.51
Qarz va kapital nisbati (Debt-to-Equity Ratio)	Umumiy majburiyatlar / Kapital	0.96	1.06	1.78	2.99	2.19
Xususiy kapital rentabelligi (ROE, %)	Sof foyda / Kapital × 100	28.1%	31.0%	42.0%	53.5%	32.4%
Aktivlar rentabelligi (ROA, %)	Sof foyda / Umumiy aktivlar × 100	14.3%	17.0%	15.1%	10.8%	10.2%
“O‘zikkilamchiranglimetall” AJ						
Ko‘rsatkich	**Formulasi**	**020**	**021**	**022**	**023**	**024**
Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Current Ratio)	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	1.05	1.12	1.08	1.04	1.06
Qarz va kapital nisbati (Debt-to-Equity Ratio)	Umumiy majburiyatlar / Kapital	1.48	1.56	1.62	1.59	1.65
Xususiy kapital rentabelligi (ROE, %)	Sof foyda / Kapital × 100	6.9%	2.4%	2.6%	2.3%	2.5%
Aktivlar rentabelligi (ROA, %)	Sof foyda / Umumiy aktivlar × 100	3.1%	1.1%	1.2%	1.1%	1.2%

“O‘zmetkombinat” AJ bilan solishtirilganda farqlar aniq ko‘zga tashlanadi. “Navoiy KMK”da joriy likvidlilik koeffitsiyenti asosan 1 atrofida shakllanib, qisqa muddatli barqarorlikni ko‘rsatgan. “Olmaliq KMK”da esa 2023-yildan boshlab keskin pasayib, 1 darajasidan ancha pastga tushgan. Qarz mablag‘laridan foydalanish darajasi bu korxonalarda nisbatan past bo‘lsa-da, “Olmaliq KMK”da 2023-yilda 2,99 gacha ko‘tarilib, yuqori qarzga qaramlikni ifodalagan. Rentabellik ko‘rsatkichlari bo‘yicha “Navoiy KMK” va “Olmaliq KMK” 2020–2024-yillarda yuqori natijalarni qayd etgan, xususan, ROE 20–50 foiz oralig‘ida, ROA esa 10–24

[9] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan.

foizgacha yetgan. “O‘zikkilamchiranglmetall” AJ esa doimiy ravishda eng past natijalarni namoyon etib, ROE 2–7 foiz, ROA esa 1–3 foiz oralig‘ida qolgan.

Ushbu korxonalar bilan taqqoslaganda, “O‘zmetkombinat” AJ nisbatan kichikroq daromad bazasida faoliyat yuritadi, biroq ko‘proq barqarorlikni namoyon etadi. 2024-yilda sof foyda marjasi deyarli 12 foizga yetgan, operatsion pul oqimi izchil ortib 700 milliard so‘mga chiqqan va aktivlar rentabelligi (ROA) 6–8 foiz atrofida sog‘lom darajada saqlangan. Bu shuni ko‘rsatadiki, eng yirik korxona bo‘lmagan taqdirda ham, “O‘zmetkombinat” o‘z tengdoshlariga qaraganda yuqori samaradorlik va barqaror foydalilikni ta’minlab, moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan qulayroq mavqega ega.

“O‘zmetkombinat” AJda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining joriy etilishi strategik maqsadlar bilan operatsion faoliyat samaradorligi o‘rtasida aniq uyg‘unlikni ta’minladi. Moliyaviy o‘sish, mijozlar qoniqishi, ichki jarayonlar samaradorligi, xodimlar salohiyatini rivojlantirish, sifatni ta’minlash hamda xarajatlarni boshqarishga qaratilgan yondashuv orqali korxona barqaror o‘sish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Keyingi besh yillik prognozlar “O‘zmetkombinat” AJning innovatsiyalar, operatsion mukammallik va bozor yetakchiligi yo‘lidagi qat’iy harakatlarini tasdiqlaydi va korxonaning global metallurgiya sanoatidagi uzluksiz muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

“O‘zmetkombinat” AJning iqtisodiy samaradorligiga biz tomonimizdan taklif qilingan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi oltita ko‘rsatkichini ta’sirini regressiya tahlilini qilib chiqdik. Tadqiqotimiz davomida ikkilamchi va birlamchi ma’lumotlar qo‘llanilgan. Empirik tahlilda amalga oshirilgan regressiya tahlili asosan Oddiy Kvadratlar Usuli (Ordinary Least Squares – OLS)ga tayanadi. Tanlab olingan ko‘rsatkichlar — ya’ni, korxona qiymati, moliyaviy yo‘nalish, mijozlar yo‘nalishi, ichki biznes jarayonlari, o‘rganish va rivojlanish, sifat va muvofiqlik hamda xarajatlarni boshqarish bo‘yicha ma’lumotlar “O‘zmetkombinat” AJ uchun 2017-yilning birinchi choragidan 2023-yilning to‘rtinchi choragigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillarimiz De Geuser va boshq. (2009)[10] hamda Okoye va boshq. (2017)[11] tomonidan ta’kidlangan farazga tayanadi. Unga ko‘ra, balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining to‘rtta o‘lchovi o‘rtasida kuchli sabab-oqibat bog‘liqligi mavjud bo‘lib, ushbu bog‘liqlik tashkilotning faoliyat samaradorligi va qiymat yaratish jarayoniga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu g‘oyalarni empirik jihatdan sinab ko‘rish maqsadida tadqiqotda kompaniya qiymati (firm value) natijaviy o‘zgaruvchi (Y) sifatida, balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining to‘rtta o‘lchovi esa mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida qaralgan model ishlab chiqildi. Ushbu bog‘liqliklarni baholashda o‘zgaruvchilar

---

[10] De Geuser, F., Mooraj, S., & Oyon, D. (2009). Does the Balanced Scorecard add value? Empirical evidence on its effect on performance. European Accounting Review, 18(1), 93–122. https://doi.org/10.1080/09638180802481698

[11] Okoye, E. I., Odum, A. N., & Odum, C. (2017, September). Effect of Balanced Scorecard on Firm Value: The Case of Quoted Manufacturing Companies in Nigeria. In Proceedings of the 2017 International Conference on African Entrepreneurship and Innovation for Sustainable Development (AEISD) (Chapter 4). https://www.semanticscholar.org/paper/Effect-of-Balanced-Scorecard-on-Firm-Value%3A-The-of-Okoye-Odum/35bbecdef86270c7b2afd5291fc15ebc7636c6ac

o‘rtasidagi chiziqli munosabatlarning kuchi va yo‘nalishini aniqlash uchun regressiya tenglamasi qo‘llanilgan. Model quyidagicha ifodalanadi:

Y – Kompaniya qiymati (firm value)

X_1 – balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining moliyaviy o‘lchovi

X_2 – balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining mijozlar o‘lchovi

X_3 – balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining ichki jarayonlar o‘lchovi

X_4 – balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining o‘rganish va rivojlanish o‘lchovi.

Quyidagi 5-jadvalda “O‘zmetkombinat” AJda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi doirasida moslashtirilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan:

5-jadval

“O‘zmetkombinat” AJda Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi doirasida moslashtirilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari[12]

O‘zgaruvchilar	Ko‘rsatkichlar (Metrics)	Tavsif	Manba
Kompaniya qiymati	Kapital (Equity)	Aksiyadorlarning umumiy kapitalini kompaniya qiymatining ko‘rsatkichi sifatida ifodalaydi.	Moliyaviy hisobotlar
Moliyaviy yo‘nalish	Sof foyda (Net profit)	Daromaddan barcha xarajatlar chegirib tashlangandan so‘ng qolgan sof daromad miqdori.	Moliyaviy natijalar hisobotlari
Mijozlar yo‘nalishi	Mijozlarni saqlab qolish darajasi	Belgilangan davr ichida saqlab qolingan mijozlar ulushi, sodiqlik darajasini aks ettiradi.	CRM tizimi / Mijoz so‘rovlari
Ichki biznes jarayonlari	Operatsion samaradorlik	Ish jarayonlari va resurslardan foydalanish samaradorligini o‘lchaydi.	Ichki operatsion hisobotlar
O‘rganish va rivojlanish	Xodimlar qoniqish indeksi	Xodimlarning ishga jalb etilishi va motivatsiyasini aks ettiruvchi qoniqish darajasini ifodalaydi.	Xodimlar so‘rovlari / HR hisobotlari
Sifat va amalga oshirish	Mijoz shikoyatlari soni	Qabul qilingan shikoyatlar soni yoki ulushi, mahsulot/xizmat sifati ko‘rsatkichini bildiradi.	Mijozlarga xizmat ko‘rsatish jurnali
Xarajatlarni boshqarish	Sotilgan mahsulotlar tannarxi (COGS)	Kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar tannarxining to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlari, xarajat samaradorligini ko‘rsatadi.	Moliyaviy natijalar hisobotlari

Regressiya tahlili metodologiyasi har ikkala — har bir yo‘nalishning alohida ta’sirini baholovchi oddiy regressiyalar va barcha o‘zgaruvchilarni birgalikda tahlil qiluvchi ko‘p omilli regressiya modelini o‘z ichiga oladi. Oddiy regressiya natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ichki biznes jarayonlari ($R^2 = 0.712$) va O‘rganish va rivojlanish ($R^2 = 0.718$) yo‘nalishlari kompaniya qiymati bilan eng kuchli individual musbat bog‘liqlikka ega. Ko‘p omilli regressiya modeli esa balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining umumiy modeli kompaniya qiymatidagi o‘zgarishlarning 91.2 foizini tushuntirib bera olishini ko‘rsatmoqda ($R^2 = 0.912$). Barcha yo‘nalishlar orasida xarajatlarni boshqarish faqatgina 1 foizlik ahamiyat darajasida statistik jihatdan ishonchli va ijobiy ta’sir ko‘rsatgan yagona omil sifatida aniqlangan. Modelning ishonchliligi (robustligi) bir qator diagnostik testlar orqali tasdiqlandi: geteroskedastiklik aniqlanmadi (White testi, Breusch–Pagan

[12] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

testi), muqobil (omitted) o‘zgaruvchilar mavjud emasligi Ramsey RESET testi orqali tasdiqlandi, va qoldiqlarning normal taqsimlanishi Skewness/Kurtosis testi orqali aniqlangan.



2-rasm. Balanslashgan ko‘rsatkichlar xaritasining tahliliy usuli[13]

Quyidagi 2-rasmda biz tomonimizdan taklif qilingan balanslashgan ko‘rsatkichlar xaritasining tahliliy usuli keltirilgan. Xaritada balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish bosqichlari va olti asosiy yo‘nalish bo‘yicha funksional maqsadlar ifodalangan. Mazkur yondashuv tashkilotning missiyasi, vazifa va qadriyatlaridan boshlab, maqsadli ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish hamda uni boshqaruv darajalariga moslashtirishgacha bo‘lgan uzviy jarayonni qamrab oladi. Xarita moliyaviy natijalar, mijozlar ehtiyojini qondirish, ichki jarayonlar samaradorligi, xodimlar salohiyatini rivojlantirish, sifat va muvofiqlikka rioya etish hamda xarajatlarni boshqarish kabi ustuvor maqsadlarni tizimli tarzda integratsiyalash imkonini beradi. Shu orqali tashkilot strategiyasini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi konseptual tahliliy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Biz tomonimizdan berilgan taklif natijalari shuni isbotlaydiki, “O‘zmetkombinat” AJ uchun moslashtirilgan va statistik jihatdan asoslangan Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi nafaqat samaradorlikni baholash tizimi, balki

[13] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

kompaniya qiymatini tushuntirish va oshirishga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv vositasi sifatida ham faol ishlaydi.

Dissertatsiyaning **“Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi metodologiyasini takomillashtirish, boshqaruv hisobidagi balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining o‘rni va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Quyidagi 6-jadvalda an’anaviy balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi va AI-asosida (AI-sun’iy intellekt) takomillashtirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi o‘rtasidagi farqlar keltirilgan:

6-jadval

An’anaviy BSC va AI-asosida takomillashtirilgan BSC o‘rtasidagi farqlar[14]

Jihatlari	An’anaviy BSC	Sun’iy intellekt asosidagi takomillashtirilgan BSC
Ma’lumotlardan foydalanish	Retrospektiv tahlil qilish	Real vaqtli monitoring va bashoratli (predictive) tahlillar
Moslashtirish	Sanoatga xos moslashuvning cheklanganligi	“O‘zmetkombinat” AJga moslashtirilgan, oltita yo‘nalishni qamrab oladi
Qaror qabul qilish	Reaktiv yondashuv (ya'ni voqealarga faqat sodir bo‘lgandan keyin javob qaytarish)	Sun’iy intellektga asoslangan tahlillar orqali proaktiv yondashuv
Samaradorlik	Asosiy ko‘rsatkichlarni (KPI) qo‘lda kuzatib borish	Ma’lumotlarni avtomatik yig‘ish va tahlil qilish
Masshtablilik	Cheklangan	Sun’iy intellekt integratsiyasi orqali yuqori darajadagi masshtablilik

Bizning fikrimizcha tadqiqotimiz natijalari o‘z ta’sir doirasini metallurgiya sohasidan tashqariga ham kengaytiradi. Sun’iy intellekt bilan boyitilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi murakkab operatsion jarayonlarga va samaradorlikni baholash ehtiyojlariga ega sohalar uchun kengaytirilishi mumkin bo‘lgan samarali yechim sifatida namoyon bo‘ladi. Uning real vaqt rejimida qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashi va strategik harakatlarni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish qobiliyati zamonaviy korxonalar uchun muhim boshqaruv vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shunga o‘xshash tizimlarni joriy etgan korxonalar operatsion aniqlik, strategik moslashuvchanlik va manfaatdor tomonlar qoniqishini oshirish orqali sezilarli raqobat ustunligiga ega bo‘lishlari mumkin.

9-jadvalda an’anaviy balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi va “O‘zmetkombinat” AJda joriy etilgan sun’iy intellekt asosidagi takomillashtirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi o‘rtasidagi asosiy farqlar yoritib berilgan. Sun’iy intellekt integratsiyasi real vaqt rejimida monitoring qilish, bashoratli tahlillar olib borish va ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish imkonini yaratib, an’anaviy balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining orqaga qarab tahlil qiluvchi va

[14] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

qo‘lda boshqariladigan yondashuvini almashtiradi. Ushbu yangi model yuqori darajadagi moslashtirish, kengaytirilgan masshtablilik va samaradorlikni ta’minlaydi. Mazkur transformatsiya tashkilotda strategik muvofiqlikni, javob berish tezligini va faoliyat samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.



3-rasm. An’anaviy Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi va sun’iy intellekt bilan takomillashtirilgan BSC yondashuvlarining asosiy foyda yo‘nalishlari bo‘yicha samaradorligi[15]

3-rasmda keltirilgan diagramma an’anaviy balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi hamda sun’iy intellekt asosida takomillashtirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimining strategik muvofiqlik, samaradorlik, qaror qabul qilish, mijozlar qoniqishi, xarajatlarni tejash va me’yoriy muvofiqlik kabi olti asosiy foyda yo‘nalishlari bo‘yicha samaradorligini taqqoslaydi. Vizual ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi barcha baholangan yo‘nalishlarda an’anaviy modeldan ustunlikka ega. Xususan, strategik muvofiqlik nuqtai nazaridan, takomillashtirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi tashkilot faoliyatini uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan aniqroq uyg‘unlashtirish qobiliyatiga ega ekanligini namoyon etadi.

“O‘zmetkombinat” AJda Faoliyatga asoslangan xarajatlar tizimini (ABC) balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimiga integratsiya qilish strategik samaradorlikni boshqarishda yangi bosqichni anglatadi. An’anaviy yondashuvda metallurgiya kabi og‘ir sanoat tarmoqlarida xarajatlar tuzilmasi murakkab va shaffof emas bo‘lib, ko‘pincha bilvosita xarajatlarning umumlashtirilgan taqsimoti natijasida asosiy xarajat omillari to‘liq aniqlanmaydi. ABC ushbu muammoni xarajatlarni aniq faoliyatlar va xarajat obyektlariga bog‘lash orqali bartaraf etadi va mahsulot, xizmat hamda mijoz segmentlari bo‘yicha haqiqiy xizmat ko‘rsatish tannarxini aniqlash imkonini beradi. Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi bilan birgalikda qo‘llanganda esa — bu yondashuv moliyaviy, mijozlar, ichki jarayonlar, o‘rganish va rivojlanish, muvofiqlik hamda xarajatlarni boshqarish yo‘nalishlari bo‘yicha

[15] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

ko‘p o‘lchovli tahlillarga asoslangan, ma’lumotlarga tayanilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi.

7-jadval

2019–2024-yillarda “O‘zmetkombinat” AJda ABC–BSC integratsiyasining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga strategik ta’siri[16]

Ko‘rsatkich	2019	2024	Strategik izoh
Daromad (mlrd so‘m)	5,270	7,581	Foydali jarayonlar va mijozlar segmentatsiyasi asosida o‘sish ta’minlandi
Sof foyda (mlrd so‘m)	366	904	ABC asosidagi xarajat nazorati orqali xarajatlar ortishiga qaramay rentabellik saqlab qolindi
Investitsiya loyihalari (mlrd so‘m)	517	8,853	ABC xarajat markazlari tahliliga asoslangan holda taqsimlandi
Energiya tannarxi (USD/birikma)	100	78	ABC ko‘rsatmalari asosida yuqori xarajatli jarayonlarga modernizatsiya kiritilib pasaytirildi
Xaridlar samaradorligi (%)	70	92	Yetkazib beruvchi va logistika samaradorligini ABC orqali kuzatish asosida yaxshilandi
Zarar yetganlik darajasi (%)	1.5	0.4	ABC yondashuvi asosida sifatni yaxshilash orqali kamaytirildi
Issiqxona gazlari qisqarishi (%)	0	12	Xarajat samarador va muvofiq ishlab chiqarish liniyalari orqali ta’minlandi
Mijozlar qoniqishi (%)	75	93	ABC asosidagi mijozlar segmentatsiyasi orqali oshirildi
Yetkazib berish muddati (kunlarda)	7.5	5.8	ABC yo‘naltirilgan yetkazib berish zanjiri takomillashuvi orqali kamaytirildi

Quyidagi 7-jadval 2019–2024-yillar davomidagi “O‘zmetkombinat” AJning moliyaviy xo‘jalik faoliyatining amaliy tahlili ushbu integratsiyalashgan yondashuvning amaliy samarasini tasdiqlaydi. Mazkur davr mobaynida kompaniya daromadlari 5,27 trillion so‘mdan 7,6 trillion so‘mgacha oshgan bo‘lsa, sotilgan mahsulotlar tannarxi 4,09 trillion so‘mdan 6,04 trillion so‘mgacha ko‘tarilgan. Yuqori daromad o‘sishi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, kompaniya rentabelligini saqlab qolish ko‘p jihatdan faoliyatga asoslangan xarajatlar tahlili (ABC) orqali olingan tahliliy ma’lumotlar bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu tahlillar qaysi ishlab chiqarish faoliyatlari va mijozlarga xizmat ko‘rsatish shartnomalari qiymatga nisbatan ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqarayotganini aniqlab berdi. Natijada 2021–2022-yillarda strategik xarajatlarni qisqartirish tashabbuslari yo‘lga qo‘yildi, xususan, ABC aniqlagan yuqori xarajatli va past samaradorlikka ega jarayonlarga avtomatlashtirish investitsiyalari yo‘naltirildi.

Oxirgi yillardagi ilmiy ishlarni kuzatish natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, biz erishgan natijalar olimlar erishgan natijalarga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Psarras va boshq. (2022)[17] ta’kidlaganidek, ABC–BSC integratsiyasi moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahliliy shaffoflikni oshirish orqali strategiyani samarali amalga oshirishning analitik asosini mustahkamlaydi. Marques va Oliveira (2024)[18] esa sun’iy intellekt asosida takomillashtirilgan ABC

---

[16] Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

[17] Psarras, J., Kapsalis, G., & Antypas, K. (2022). Integrating activity-based costing with balanced scorecard through intelligent systems: A case study in manufacturing. Journal of Accounting and Organizational Change, 18(3), 427–448. https://doi.org/10.1108/JAOC-04-2021-0053

[18] Marques, P., & Oliveira, T. (2024). Artificial intelligence in performance management: Enhancing the balanced scorecard with predictive costing models. Technological Forecasting and Social Change, 198, 122958.

tizimlari tor joylar (bottlenecks) va qiymat yo‘qotishlarini avtomatik aniqlashga qodir bo‘lib, bu dinamik balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi boshqaruv panellari bilan mukammal uyg‘unlashishini ta’kidlaydi. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, korxona misolida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan yondashuv moliyaviy barqarorlik, xarajatlar monitoringi va samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni amalda tasdiqladi, bu esa ilgari surilgan ilmiy yondashuvlar bilan to‘liq mos kelishini ko‘rsatadi.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Olib borilgan tadqiqotlar asosida, korxona boshqaruv hisobida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish yo‘lida sifat va amalga oshirish ko‘rsatkichlari hamda xarajatlarni boshqarish ko‘rsatkichlarini yagona tizimda integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimida sifat va amalga oshirish ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda xarajatlarni boshqarish ko‘rsatkichlarini integratsiya qilish orqali tashkilot faoliyati natijalarini strategik va operatsion darajada baholash aniqligini oshirish chegarasi ($15\% \leq BA \leq 20\%$)da xo‘jalik faoliyatining asosiy jihatlarini to‘liq qamrab olish va strategik boshqaruv samaradorligini oshirish asoslangan;

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida kompaniya faoliyatining moliyaviy barqarorlik, operatsion samaradorlik, xodimlarni rivojlantirish va mijozlar ehtiyojini qondirish kabi asosiy yo‘nalishlarini kompleks baholash imkonini beruvchi, o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimiga asoslangan takomillashgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tizim boshqaruv hisobining kompleks va tizimli asosda takomillashuvi yo‘lidagi muhim amaliy natija sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kapitalning yuqori zichligi, xalqaro bozorlarning ta’siri, ekologik standartlar va qoidalar, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda balanslashgan ko‘rsatkichlar xaritasini shakllantirishning tahliliy yondashuvi ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv boshqaruv hisobini amaliy va konseptual jihatdan takomillashtirish yo‘lida muhim ilmiy yangilik sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijalari asosida balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimini faoliyat asosidagi xarajatlar hisobi (Activity Based Costing — ABC) bilan integratsiyalash bo‘yicha takomillashtirilgan yondashuv ishlab chiqildi. Taklif etilgan integratsiyalashgan tizim boshqaruv hisobi amaliyotida innovatsion yondashuv sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Tadqiqot doirasida boshqaruv qarorlarini asoslashda moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi, korxona faoliyatining sifat va amalga oshirish hamda xarajatlarni boshqarish jihatlarini kompleks tarzda qamrab olgan kengaytirilgan balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi

---

https://doi.org/10.1016/j.techfore.2023.122958 ishlab chiqildi. Mazkur tizim boshqaruv hisobining zamonaviy talablarga moslashtirilgan shakli sifatida, amaliyotga joriy etilishi mumkin boʻlgan muhim ilmiy yangilik sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, faoliyatga asoslangan xarajatlar tizimi (ABC) asosida boshqaruv hisobini takomillashtirish xarajatlar manbalarini aniq identifikatsiya qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini yaratadi. “Oʻzmetkombinat” AJ misolida balanslashgan koʻrsatkichlar tizimini faoliyatga asoslangan xarajatlar (ABC) modeli bilan integratsiya qilish biznes jarayonlar samaradorligini baholash aniqligi darajasini ($0{,}88 \leq BDS \leq 0{,}92$) ta’minlash, resurslarni maqbul qayta taqsimlash orqali umumiy xarajatlarni 10–12 foizgacha qisqartirish imkonini beradi. Ushbu natija ABC tizimining boshqaruv qarorlarini qoʻllab-quvvatlovchi samarali mexanizm sifatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot doirasida korxonada koʻrsatkichlar xaritasi ishlab chiqilib, har bir boʻlim faoliyatini samarali baholash imkonini beruvchi aniq natija koʻrsatkichlari va baholash mezonlari belgilandi. Ushbu yondashuv orqali faoliyat natijalarining doimiy monitoringi yoʻlga qoʻyilib, boshqaruv hisobida funksional tahlil va natijaga yoʻnaltirilgan qaror qabul qilish jarayonlari kuchaytirildi. Natijada, boshqaruv qarorlarining maqsadga yoʻnaltirilganligi va amaliy natijadorligi oshdi hamda korxona ichki muvofiqlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimiga ega boʻldi. Bu esa, oʻz navbatida, resurslardan oqilona foydalanish va umumiy faoliyat unumdorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan yondashuv asosida boshqaruv hisobotlari tizimlashtirilib, xarajatlar markazlari kesimida rejalashtirish va tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirildi. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda xarajatlarni maqbullashtirishga xizmat qiluvchi analitik axborot bilan boshqaruvni ta’minladi. Natijada, qaror qabul qilish jarayonlarida aniqlik, tezkorlik va maqsadga yoʻnaltirilganlik darajasi oshdi, bu esa korxonaning ichki jarayonlarini yanada samarali boshqarishga asos boʻldi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGRESS DSc.03/10.12.2019.I.16.01 AT THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

TURSUNALIEV IBROKHIMJON USMONALI UGLI

IMPROVING THE FORMATION OF BALANCED SCORECARD SYSTEM IN MANAGEMENT ACCOUNTING

08.00.08 – Accounting, Economic analysis and Audit

ABSTRACT
of the Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Economics

Tashkent – 2025

The topic of doctor dissertation (Doctor of Philosophy) was registered under the number B2024.2.PhD/Iqt4182 at the Supreme Attestation Commission.

The dissertation has been accomplished at the Tashkent State University of Economics.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek Russian and English (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsue.uz) and on the website of "Ziyonet" informational and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Abdusalomova Nodira Baxodirovna** Doctor of Economics, Professor
Official opponents:	**Axmedjanov Karimjon Bakidjanovich** Doctor of Economics, Professor
	Xalilov Sherzod Axmatovich Doctor of Philosophy in Economics, Associate Professor
Leading organization:	**Samarkand Institute of Economics and Service**

The defense of the dissertation will take place on 12 "16" at 16^00 at the meeting of Scientific Council DSc.03/10.12.2019.I.16.01 at Tashkent State University of Economics of the Republic of Uzbekistan. Address: 100066, Tashkent city, I.Karimov street, building 49, phone: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51, E-mail: tsue_info@tsue.uz.

The doctoral dissertation (PhD) can be reviewed at the Information Resource Center of Tashkent State University of Economics (registered under the number 1896). Address: 100066, Tashkent city, I. Karimov street, building 49, phone: (99871) 239-28-72, fax: (99871) 239-43-51, E-mail: tsue_info@tsue.uz.

The abstract of dissertation sent out on "28" 11 2025.
(mailing report № 112 on "28" 11 2025).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI * TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI *

S.U. Mekhmonov
Chairman of the Scientific council for awarding scientific degrees, Doctor of Economics, Professor

U.V. Gafurov
Scientific secretary of the Scientific council for awarding scientific degrees, Doctor of Economics, Professor

S.K. Khudoykulov
Chairman of the scientific seminar under the Scientific council for awarding scientific degrees
Doctor of Economics, professor

INTRODUCTION (abstract of the thesis of the Philosophy Doctor (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. In the context of increasing complexity in the operations of economic entities worldwide, intensifying competition in the external economic environment, the deepening of digitalization processes, and rising demands for resource use efficiency, the organization of management accounting based on modern and flexible methods has become a matter of criticial importance. Particularly in industrial enterprises, the need to enhance production efficiency, integrate financial and non-financial information, and improve the quality of managerial decision-making necessitates further development of the balanced scorecard (BSC) system. In advanced industrialized countries, management accounting and the balanced scorecard are considered an integrated framework that serves a key source of information for improving industrial performance, advancing digital transformation, and ensuring reporting accuracy. This, in turn, enables metallurgical enterprices to establish modern management practices, conduct real-time analysis, and significantly improve cost control mechanisms.

Globally, research focused on improving the formation and implementation of balanced scorecard systems within management accounting is steadily expanding. In the ferrous metallurgy industry, achieving efficient organization of metal production processes, rational use of raw materials and resources, and high-quality finished products requires the introduction of advanced management accounting tools. Through the implementation of the balanced scorecard framework, enterprises can conduct comprehensive performance assessments across multiple dimensions, including financial results, customer relations, internal production processes, employee capacity, quality, and cost indicators. This approach enhances competitiveness in the ferrous metallurgy sector by reducing costs, improving product quality, and ensuring strategic alignment of operational activities. As a result, the use of the balanced scorecard within management accounting has emerged as a priority research direction in this field.

For enterprises operating in Uzbekistan's ferrous metallurgy industry, the balanced scorecard system holds particular relevance in light of ongoing digital transformation initiatives and efforts to comply with international quality management standards (ISO 9001:2015, ISO 50001:2019). These enterprises represent a key pillar of the national industrial structure, supplying essential metal products to heavy industry, machinery manufacturing, construction materials, transport, and energy sectors, thereby supporting their stable functioning. Notably, major joint-stock companies such as "Oʻzmetkombinat" not only meet domestic demand for steel, cast iron, and rolled products but also actively participate in export markets. Furthermore, the strategic role of ferrous metallurgy enterprises in the national economy is reinforced through the adoption of modern production technologies, efficient resource utilization, and adherence to environmental standards. These measures contribute both to lowering production costs and to manufacturing competitive products that meet international market requirements. The sector also makes a significant contribution to the country's sustainable economic growth by creating new jobs, stimulating regional development, and strengthening innovation infrastructure.

This research also aligns with the strategic objectives set out in several key policy documents, including Presidential Decree No. PF-79 of May 24, 2024, “On Measures to Improve the System of State Governance and Control in the Field of Subsoil Use, Industrial, Radiation and Nuclear Safety, and the Use of Atomic Energy”; Presidential Decree No. PF-60 of January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; and Presidential Decree No. PF-5495 of August 1, 2018, “On Measures to Radically Improve the Investment Climate in the Republic of Uzbekistan.” It is also consistent with Resolution No. PQ-4611 of February 24, 2020, “On Additional Measures for the Transition to International Financial Reporting Standards,” and Resolution No. PQ-5159 of June 24, 2021, “On Additional Measures for the Development of the Mining and Metallurgy Industry and Related Sectors,” along with other regulatory documents governing financial and management accounting. This dissertation aims to contribute, at least in part, to the effective implementation of these strategic priorities.

Compliance of the research with the priority directions of the development of science and technology in the republic. This dissertation research has been conducted in alignment with the priority direction of the Republic’s scientific and technological development, namely “Spiritual, moral, and cultural development of a democratic and legal society, and the formation of an innovative economy”.

The Degree of Study of the Problem. The theoretical, methodological, and practical aspects of performance measurement and cost accounting in various sectors of the economy have long been the focus of attention among economists and scholars. In particular, issues related to the study and development of cost accounting, strategic control, and management accounting systems have been explored by several prominent foreign researchers, including Kaplan R.S., and Norton D.P., Hoque Z., Madsen D.O., and Stenheim T., Niven P.R., Parmenter D., Abagissa J., Zizlavsky O., Nørreklit H., Lawrie G., & Cobbold I., de Waal A.A., Rdiouat Y., Garrett K.E., Huizenga H.J. and others[19].

